O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

(2024-yil 17-18-may)

(2-qism)

JIZZAX-2024

“Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2024-yil 17-18-may. 461-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O‘ralov A.I.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., t.f.f.d.(PhD), dotsent Abdumalikov A.A., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), dots. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dotsent Alibayev S.X., p.f.f.d. (PhD) Halimov O‘.H., p.f.f.d.(PhD), dotsent Karshiyev A.A., f.f.f.d.(PhD), dotsent Sindorov L.K., t.f.f.d. (PhD), dotsent Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD), dotsent Mustafaqulov M.A., f.f.f.d. (PhD) Alibekov D.A.., f-m.f.f.d. (PhD) Sharipov X.F., ps.f.f.d.(PhD) Norbekova B.Sh., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Qayumov O.A., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

дисциплины и обеспечения обновления руководства, когда компания находится в особенно трудном положении. Возможно, что управление оказывает наибольшее влияние именно в таких ситуациях в жизни компании, как принятие решения о смене высшего руководства. Именно поэтому мы исследуем взаимосвязь между управлением, эффективностью и …

Резюме и выводы

Наша исследовательская работа вносит значительный вклад в литературу, представляя последовательную оценку связи между корпоративным управлением и эффективностью. Мы осуществляем эту оценку, учитывая сложные взаимосвязи между корпоративным управлением, эффективностью, структурой корпоративного капитала и собственности. В рамках нашего исследования мы выделяем четыре ключевых вклада в литературу:

Во-первых, вместо ограничениясь рассмотрением только одного показателя управления, как это часто делалось в предыдущих исследованиях, мы анализируем семь различных показателей управления. Это позволяет получить более полное и глубокое понимание связи между управлением и эффективностью.

Литература.

1. Anderson R.C. *et al.* Board characteristics, accounting report integrity, and the cost of debt Journal of Accounting and Economics (2004)
2. Bebchuk L. *et al.* The costs of entrenched boards Journal of Financial Economics (2005)
3. Brickley J.A. *et al.* Leadership structure: separating the CEO and chairman of the board Journal of Corporate Finance, (1997)
4. Core J.E. *et al.* Corporate governance, chief executive officer compensation, and firm performance Journal of Financial Economics (1999).

RAQAMLI IQTISODIYOTDA KO‘RSATILADIGAN XIZMATLARNING AMALIY AHAMIYATI

i.f.n., dots. Iminova Nargizaxon Akramovna
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
n.iminova@tuit.uz

Annotatsiya: Ushbu tezisda raqamli iqtisodiyotda xizmat turlarini tashkil qilish, rivojlantirish, ularga yangi texnologiyalarni jalb qilish orqali xizmat turlarining imkoniyatlari va samaradorlik natijalari keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Raqamli iqtisodiyot, xizmat turlari, samaradorlik, texnologiya, elektron, moliya, boshqaruv.

Milliy iqtisodiyotlarning yangi raqamli iqtisodiyot tomon rivojlanishi bu sohada nazariy tadqiqotlar va bahs-munozalarning kengayishini talab qiladi. Milliy iqtisodiyot rivojlanishining texno-raqamli platformasini yaratishga qaratilgan yuqori boshqaruv organlarining amaliy dasturiy harakatlari ham yangi iqtisodiyotga o‘tish uchun katta hissa qo‘shishi mumkin. Mamlakatimizda yangi raqamli

texnologiyalarning (ishlab chiqarish, moliyaviy, boshqaruv, ijtimoiy va boshqalar) paydo bo‘lishi va hayotga joriy qilinishi milliy iqtisodiyot uchun juda ko‘p sonli ijobiy samaralar va natijalarga olib kelishi mumkin, ya’ni:

- mehnat unumdorligining ortishi;
- kapitallashuvning ortishi;
- turmush sifatining yaxshilanishi;
- yangi bozorlar shakllanadi;
- fudnet bozorida intellekt ishlab chiqargan tovarlar savdosi rivojlanadi;
- raqobatdoshlikning o‘sishi;
- xavfsizlikning o‘sishi;
- xalq farovonligining ortishi.

Hozirgi paytda mamlakatimizdagi va xorijdagi ko‘plab mutaxassislar va iqtisodchilar yangi iqtisodiyotning, jumladan, uning namoyon bo‘lish shakllaridan biri – raqamli iqtisodiyotning hozirgi rivojlanish holatiga uzil-kesil tavsif berishga va uni tushunib yetishga harakat qilmoqdalar. Ko‘plab tadqiqotchilar sub’ektiv munosabat prizmasi orqali zamonaviy iqtisodiyotga xos bo‘lgan umumiy – ob’ektiv va sub’ektiv nuqtai nazardan bu hodisani o‘zicha tushunish va idrok qilishga harakat qilishmoqda. Ob’ektiv jihatdan esa bu ko‘proq zamonaviy iqtisodiyotdagi yangi tomonlar, belgilar, tendensiyalar va qonuniyatlar namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq. Yangi iqtisodiy hodisalarni o‘rganish va hisobga olish, xususan, raqamli iqtisodiyotni yangi iqtisodiyotning nisbatan mustaqil qismi sifatida ajratish katta qiziqish uyg‘otadi. Chunki iqtisodiyotni boshqarish sifati va tezligini oshirish, biznes yuritish qoidalari va huquqiy maydoniga tuzatishlar kiritish, raqamli texnologiyalar iqtisodiyoti, MICE-industriya, Smart-shahar va shunga o‘xshashlar asosida innovatsion mahsulotlar, servislar va xizmatlar hosil qilishga imkon yaratadi.

Shunday qilib, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, birinchi navbatda, nafaqat inqilobiy texnologik o‘zgarishlar bilan, balki yangi iqtisodiyotning evolyusiya qonuniyatlari bilan ham belgilanadi. Shuningdek, zamonaviy menejmentni yangicha boshqaruv tamoyillari va biznesni yuritish qoidalarini hisobga olishga yo‘naltiradi, mahsulot sifati va mehnat unumdorligining o‘sishiga xizmat qiladi, iqtisodiy sikldagi salbiy tomonlarni bartaraf qiladi, inflyatsiya va ishsizlikni pasaytiradi, globallashuv sharoitlarida iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minlaydi.

Iqtisodiy jarayonlar globallashuvi jahon elektron tarmog‘ining shakllanishi bilan bog‘liq iqtisodiyotning turli sohalari integratsiyasi kuchayishi tufayli zamonaviy iqtisodiyot rivojlanishining asosiy tendensiya va tamoyillariga aylanadi. Yangi iqtisodiyotning ushbu qonuniyati, bir tomondan, global biznes uchun keng imkoniyatlar yaratsa, boshqa tomondan esa – firmalar va kompaniyalarning iste’molchilar oldidagi javobgarligini tubdan oshiradi. Iste’molchilarning qandaydir kompaniya mahsulotidan qoniqmaganligi zudlik bilan keng ommaga ma’lum bo‘lib qoladi va ijtimoiy javobgarlik hissini paydo qiladi. Iqtisodiyotning globallashuvi, raqamli iqtisodiyotda esa zamon va makonning “yo‘q bo‘lishi” ko‘plab ishlab chiqarish omillari va birinchi navbatda, vaqt omili qiymatining ortishiga olib keladi.

Vaqt – ijtimoiy ishlab chiqarish mezoni sifatida, doimo ishlab chiqarishning qiymat bahosini belgilab bergan. Biroq hozirgi sharoitlarda vaqtning «narxi» qiyoslab bo‘lmaydigan darajada o‘sdi. Avvallari “vaqt – pul” deyilsa, hozirgi vaqt puldan qimmat omilga aylandi. Ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar o‘rtasida “bir lahzalik” aloqalar dunyosida vaqt (uni tejash va bitimlar tezligi) katta, aytish mumkinki, strategik ustunlikni ta’minlab bera oladi.

Hozirgi kunga kelib, asosiy o‘sish omili rolini yuqori intellektual kognitiv texnologiyalar egallab olmoqda. Yangi raqamli qiymatlar, ya’ni qo‘shilgan qiymat yaratishlar bir internet-kompaniya faoliyati orqali jamiyatdagi boylikning har taraflama o‘sishini asoslab beradi. Qiymatlar yaratish, o‘z navbatida, mavjud bozorlarni bo‘lib olishga ham bog‘liq. Zamonaviy konsepsiyalar bozor ulushini ta’minlash maqsadida mashhur bo‘lgan mahsulotni tobora ko‘proq ilgari surmoqda va shundan keyin tarmoqdan foydalangan holda u bilan bog‘liq bo‘lgan yangi tovarlar va xizmatlarni sotilishini rivojlantirmoqda. Mahsulot qiymatining bozor ulushiga bog‘liqligi elektron tarmoqning keng ko‘lamli rivojlanishi bilan asoslanadi. Agar ilgari mahsulot qiymati ko‘p jihatdan uning taqchilligi bilan belgilangan bo‘lsa, hozirgi paytda Network tufayli tovar narxi pasaymoqda. Iste’mol standartlarini belgilashga yordam beradigan mahsulot turlari bo‘yicha sotuvdan olinadigan samara bozor ulushidan kelib chiqib, o‘zgaradi. Raqamli iqtisodiyot sharoitlarida tarmoq orqali deyarli istalgan narsani – tovarlar, xizmatlar va iste’molchi uchun kerakli bo‘lgan har qanday axborotni topish mumkin. Buning ustiga, yangi foydalanuvchilar bozorni yanada taqsimlash va egallab olish maqsadida o‘zining iqtisodiy siyosatini yuritishi va axborot olishi mumkin.

Boshqa tomondan, axborot miqdori to‘xtovsiz va shiddatli o‘sib borarkan, foydalanuvchilar (xaridorlar) keraksiz axborotlarni chiqarib tashlaydigan o‘ziga xos “filtr”larga ehtiyoj sezishmoqda. Bunday sharoitlarda yangi turdagi vositachilik – axborot vositachiligi paydo bo‘lishi uchun sharoitlar yuzaga kelmoqda. Barcha jihatlarda bitimlarni amalga oshirishda kuchli va texnologik yordam ko‘rsatishga qaratilgan, iste’molchilarga intellektual xizmatlar ko‘rsatish yoki agregatsiyalangan xizmatlar taklif qiladigan axborot-internet-kompaniyalari soni ko‘paymoqda. Bu kompaniyalar iste’molchilarga qulaylik yaratish va tabiiyki, o‘z biznesi manfaatlarida kommunikativ-uyushgan muhitni shakllantiradi. Axborot vositachilari sotuvchi va xaridorlarni ma’lum tarzda bir-biri bilan bog‘lagan holda, raqamli texnologiyalar asosida, elektron tarmoqlar orqali ularning manfaatlarini hisobga olgan holda uyushtiradi. Shunisi qiziqki, barcha bozor qatnashchilari bilan shaxsiy aloqalarga va mos keluvchi axborot texnologiyalariga, shuningdek, bu qatnashchilar haqida shakllantirilgan ma’lumotlar to‘plamlaridan potensial foydali axborotga ega bo‘lgan har qanday kompaniyalar axborot vositachilari bo‘lishi mumkin.

Raqamli iqtisodiyotda xalq farovonligini strategik rejalashtirishda asosiy yo‘nalishlar quyidagilar hisoblanadi:

- xalq farovonligi maqsadlarini amalga oshirishga ajratiladigan resurslarni jalb etish;

- iste’molt fondi hajmi va strukturasining istiqboldagi dinamikasini tadqiq etish;

- aholi daromadlari strukturasi va hajmi ko‘rsatkichlarini shakllantirish;
- ijtimoiy iste’mol fondlari shakllantirish jarayonlarini tadqiq etish;
- nomoddiy ishlab chiqarish sohasining rivojlantirish;
- nomoddiy ishlab chiqarish tarmog‘ida kapital qo‘yilmalarini amalga oshirish jarayonlarini modellashtirish;
- nomoddiy ishlab chiqarish fondlari hajmini modellashtirish;
- xalqning turmush darajasini o‘stirish bo‘yicha yangi chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan resurslarni baholash;
- xalqning turmush darajasini oshirish rejalarini bajarish jarayonlarini baholash va ularning bajarilishini rag‘batlantiradigan chora-tadbirlar ishlab chiqish;
- strategik reja sifatini sistematik baholash va uning bajarilishini nazorat qilish.

Muayyan vazifalarni hal qilish aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi. Ijtimoiy rivojlanishning global, mahalliy va maqsadli ko‘rsatkichlariga muayyan strategik maqsadlar asosida erishiladi. Global ko‘rsatkichlar, eng avvalo, axoli turmush darajasi konsepsiyalarini ishlab chiqish, noishlab chiqarish sohasi va ijtimoiy rivojlanishning asosiy sohalarini rivojlantirish, shuningdek, xalq farovonligi o‘sishini tavsiflaydigan muhim jamlanma ko‘rsatkichlar dinamikasini bashorat qilishda hisobga olinadi. Lokal maqsadlar moddiy ne’matlar va xizmatlarning alohida ko‘rsatkichlarini, noishlab chiqarish sohasini rivojlantirishning turli tarmoq tavsiflarini, xalq farovonligi o‘sishidagi tafovutlarni tavsiflaydigan alohida ko‘rsatkichlarni hisob-kitob qilishda e’tiborga olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Гулямов С.С. va boshqalar. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari. T.: “Iqtisod Molia” nashriyoti, 2019. 386 bet.
2. *Гаврилов Л. П.* Электронная коммерция: учебник и практикум для вузов / 3-е изд., доп. Москва : Издательство Юрайт, 2019. -477 с.
3. *Лапидус Л.В.* Цифровая экономика: управление электронным бизнесом и электронной коммерцией.–М.:ИНФРА-М,2018.-381 с.
4. *Маркова В.*Д. Цифровая экономика: Учебник для ВУЗ ов (Высшее образование: бакалавриат). –М: Инфра-М, 2019. -186 стр.
5. *Gulyamov S.S., Ayupov R.X.* Рақамли иқтисодиёт ва унинг асосий ривожланиш йўналишлари. УзР Статистика Кумитаси электрон журнали, 2019 йил ноябрь, 2-сон.

AXBOROTLASHGAN JAMIYAT, RAQAMLI IQTISOD VA AXBOROT XAVFSIZLIGI MUAMMOLARI MOBIL QURILMALAR BOZORI

Janaydarova K. A.
Toshkent axborot texnologiyalar universiteti Nurafshon filiali magistranti